

JADID ADABIYOTIDA AXLOQIY MEZONLAR: "TURKIY GULISTON YOXUD AXLOQ" ASARIDA PSIXOLOGIK VA IJTIMOIIY YONDASHUVLAR

Mamedova Go`zaloy Buxarovna

*JIDU akademik litseyi ona tili
va adbiyot fani o`qituvchisi*

Jo`rayeva Muhabbat Amonovna

*JIDU akademik litseyi ona tili
va adbiyot fani o`qituvchisi
mux0711@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada nafs timsollari va uni tarbiyaviy ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Nafsnı o`z o`lchov tarozisi borligini va undan oqılona foydalanish kerakligini ta`kidlanadi. Har bir ijodkor o`z yaratgan ramziy obraziga yangicha ma`no yuklagan. Ramzning mohiyati ham o`quvchini ijodkorga ergashib fikrlashni talab qiladi.

**Kalit so`z:** nafsı shayton, nafsı iti, dev, kalxat, quzg`un, mor-malax.

Abstract: This article discusses the symbols of the self and its educational significance. It is emphasized that the self has its own scale of measurement and that it should be used wisely. Each creator has given a new meaning to the symbolic image he created. The essence of the symbol also requires the reader to think along with the creator.

Keywords: self, devil, dog of the self, giant, falcon, raven, peacock.

Аннотация: В данной статье рассматриваются символы самосознания и их образовательное значение. Подчеркивается, что самосознание имеет свою собственную шкалу измерения и что его следует использовать мудро. Каждый создатель придал новый смысл созданному им символическому образу. Суть символа также требует от читателя размышления вместе с его создателем.

Ключевые слова: самосознание, дьявол, собака самосознания, великан, сокол, ворон, павлин.

Yangi o`zbek she`riyatida ifoda etilgan nafsni tasavvufdagi nafs mezonlari bilan o`lchab bo`lmaydi. Chunki unda ifoda etilgan nafs ijtimoiy mazmunga ega bo`lib, mumtoz adabiyotdagi nafsning qaysidir belgilari o`zini namoyon etishi mumkin. Darhaqiqat, inson hayotda nafs me`yorini saqlasa, sabr-qanoatli bo`lsa, hayotini to`g`ri yo`lga soladi. Agar bu me`yor buzilsa, unda nafs g`olib keladi va u inson turli nopok yo`llarga boshlaydi.

Jadid she'riyatining A. Avloniy, Fitrat, Cho'lpon, Elbek kabi namoyandalari ijodida intellektual she'rlar muhim o'rin tutadi. Bunday she'rlarda insonni kamolotga yetaklovchi fikr-qarashlar obrazli aks ettirilgan. Binobarin, nafs shunday mavzular qatorida turadi. Nafs hamma davrlarda ham adabiyotning diqqat markazida turgan axloqiy mavzulardandir.

Jadid ma'rifatparvar shoiri Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarida nafs mavzusi alohida o'rin tutadi. Ayniqsa, asardagi nasriy matnlardan keyin berilgan baytlar buni tasdiqlaydi:

Sekin borgan kishi maqsuda yetgay,
Shoshub besabrlar kaj yo'lga ketgay.
Agar sabring bo'lsa nafsingga yo'ldosh,
Seni tavfiqi rabboniyga eltgay¹.

A.Avloniyning fikricha, shoshilmasdan harakat qilgan kishi maqsadiga yetadi. Agar inson shoshib harakat qilsa, egri yo'lga ketadi. Shu o'rinda shoir nafsning asosini to'g'ri ko'rsatadi: ya'ni, agar inson nafsiga sabri yo'ldosh bo'lsa, u maqsadlariga erishadi. Bunda nafs va besabrlik yonma-yon qo'yiladi.

Shoir fikrlarini davom ettirib, yana yozadi: "Nafsini sabr ila rom qilgan kishi har ishda oshiqmay, ohista harakat qilur. Nafsini halokatdan, g'ururdan saqlar. Sabr shunday bir kuchli narsadurki, shahvatni iffatga, g'azabni shijoatga, shiddatni hilmga, kattalikni tavozu'ga, yomonlikni yaxshilikga aylandurmakga quvvati yetar". Demak, nafsni tiyishning eng yaxshi yo'li – sabrli bo'lishdir. Shu jihatdan shoir sabrni bir kuchli narsa deb hisoblaydi: uning fikricha, sabr juda ko'plab yaxshi xulqlarga yo'l ochadi: shahvatni iffatga, g'azabni g'ayratga, shiddat – qo'pollikni halimlikka, kibrni tavoze'ni – kamtarlikka, yomonlikni yaxshilikka aylantiradi. Odatda tasavvufda nafsqa "dushman" deb qaraladi va uni jilovlash, o'ldirish talab etiladi. Biroq, A.Avloniy ijodida ijtimoiy yondashuv asosiy o'rinni egallaydi.: **nafsni butkul yo'q qilish emas, unga sabrni yo'ldosh qilish.** Nafs tabiatan talabchan, to'g'ri-noto'g'riligidan qat'i nazar istaklarini darhol qondirishni xohlaydi. Agar uning yoniga "sabr" yo'ldosh qilib qo'yilsa, nafs jilovlanadi, uning kuchi ijobiy tomonga (ezgulikka, ilmga, irodaga) yo'naltiriladi. Ya'ni sabr — nafsning illatlardan xalos qiluvchisi, uni tarbiyalovchi ustozidir. **"Tavfiqi rabboniy" (Allohning yordami, muvaffaqiyat):** Inson o'z kuchi bilan nafsini butkul yengishi imkonsiz. Qachonki inson sabr orqali nafs istaklarini jilovlab, o'z ustida sekin va izchil ishlasa, unga Yaratganning marhamati — *tavfiq* yetishadi. Tavfiq — bu insonning niyati bilan ilohiy irodaning hamohang bo'lishidir.

¹Avloniy A. Туркий Гулистон ёхуд ахлоқ. –Тошкент: Ўқитувчи нашриёти .1992.-Б.31.

*Keyingi misollar shu kitobdan olinadi va "o'sha manba" tarzida beti ko'rsatiladi.

Sabr ila har mushkul ish zoyil bo'lur,
 Sabr edan maqsudina noyil bo'lur.
 Har kishida bo'lmasa sabri jamil,
 Nafs ko'yina yurub, soyil bo'lur.
 Sabr qilsang, g'o'radin halvo bitur,
 Sabrsizlar o'z oyog'idin yitur ²

Shoir aytmoqchi, sabr tufayli mushkullar oson bo'ladi, sabr etgan kishi maqsadiga yetadi. Sabr yo'liga yurmagan kishi nafsga giriftor bo'ladi. So'nggi baytda xalq maqoli keltirilgan: "Sabr qilsang, g'o'radan halvo bitar". Ya'ni sabr qilgan kishi hayotda ko'p narsaga erishadi.

Demak, asardagi "Sabr" xususidagi maqolat aynan nafs mavzusini yoritishga bag'ishlangan. Shoir kitobxonni sabr qilishga chaqirar ekan, xuddi shu sifat barcha insoniy fazilatlar uchun asos bo'lib xizmat qilishini aytadi.

A. Avloniy nafs haqidagi fikrlarini dalillash maqsadida Ibn Sinodan iqtibos keltiradi: "Insonning fazl-u kamolining o'lchovi nafsning o'lchovi ila o'lchanur". Bunda shoir inson kamolotini nafs me'yori – chegarasi bilan belgilaydi. Keyin esa o'z qarashlarini she'riy misralar orqali asoslaydi:

Dunyoda har narsaning maxsus o'lchovi bo'lar,
 Banda af'olini vijdoni ila tortib ko'rar
 Bir ishiga vaznda kelsa og'ir o'z nafsiga,
 Ul ishing qandog' bo'laklarga ravo, loyiq ko'rar³.

Shoir o'zi yashab turgan tuzum, undagi yoshlar hayotiga nazar soladi: "Afsus, bizim yoshlarimizning aksarlari shahvat g'alabasi-la nafi amoralarina muftalo bo'lub, siflis, zaxm marazlarina giriftor bo'lurlar". Yoshlar jismoniy nafi tufayli turli og'ir kasalliklar: siflis, zaxm kasallariga chalinadi.

Agar shahvatka dil bersang, bo'lur qalbing qaro, kam-kam,
 Ketar nasling o'qi, bel quvvati, k o'zdan ziyo, kam-kam.
 Tamomi ixtiyoring nafi badni ilgina bersang,
 Marazlarga duchor aylar, bo'lur ranging jano, kam-kam.

Shahvat, shoirning fikricha, insonning qalbini qaro qiladi. Natijada kishining belidan quvvati, ko'zidan ziyosi – nuri ketadi. Bunda "nafi bad" tilga olingan bo'lib, nafi ammoraga ishora qiladi. Kishi o'z ixtiyorini "nafi bad"ilgiga – qo'liga topshirsa, marazlarga duchor bo'ladi, buzuq yo'llarga kiradi, qo'lidan din-u diyonati, imoni ketadi.

² O'sha manba. – B. 31.

³ O'sha manba. – B. 32.

Asarda yomon xulqlar qatorida tama' tilga olinadi: "Tama' deb birovdan bir narsa umidvor bolmakka aytilur. A'zo va javohirlari salomat, kuch va quvvatlik kishilarga tama' qilmak harom, ojiz va notavon, kuchsiz kishilarga mubohdur". Tama' deganda insonning boshqalardan biror narsaga umidvor bo'lishi tushuniladi. Haqiqiy insonlar tama'dan yiroq bo'lishadi. Bu qusurga ojiz, notavon, kuchsiz kishilar yo'liqadi. Shunday fikrlardan so'ng shoir yana bayt keltiradi:

Bo'Imagil muhtalo duchor tama'
Aylar insonni xor-u zor tama'
Yo'q qilub himmat-u qanoatni,
Oladur aldan ixtiyor tama'.
Hirsi dunyo qiladi Qorundek,
Hotam isming yutar mori tama'⁴.

Tama'ni shoir nafsga yo'l ochadigan yomon xulqlar qatriga kiritar ekan, insonlarni unga muhtalo bo'lmaslikka chaqiradi. Chunki tama' inson alal oibat xoru zor qiladi. Undagi yaxshi fazilat bo'lgan himmatu qanoatga soya soladi. Bunda shoir Qorunni talmeh qiladi. Chunki Qorun Qur'oni Karimda nafsni bildirib kelgan.

Nafsga yo'l ochadigan yomon xulqlardan yana biri – **safohat**dir: "Safohat deb buzuv va g'ayri mashru' yerlarga sarfi umr-u mol qilmakni aytilur Safohat eng yomon xulqlardan sanalgan bir sifati zamimadurki, kishini duchori yasuna domat etmakdan boshqa, shuhrat va e'tiborini yer ila yakson qilur va o'rinsiz yerga sarf qilingan narsaning qiymatini qaytarib olmoq mumkin o'lmadig'i (kabi) safohat dunyosiga isrof qilingan aziz umr va hayotning-da irodasining imkoni yo'qdur"⁵. Demak, kishi topganlarini buzuv odamlar, yomon joylarga sarflasa, safohat bo'ladi. Bu zamima – yomon xulq aqlsizlik, nodonlik, ablahlik natijasida yuzaga keladi. Bu fikrlarini shoir quyidagi bayt bilan asoslaydi:

Safohat ofatijondur jahonda,
Safohat bizdadur ushbu zamonda.
Yuqumli bir marazdandur safohat,
Yuqub andin tug'ilar har falokat⁶.

Shoir safohatni "ofatijon" – jonning ofati, yuqumli bir maraz – kasallik deb ta'riflaydi. Shuning uchun ham u boshqalarga ham yuqib, falokatga sabab bo'ladi.

Safohat mahv edar umring, hayoting,
Umid etma safohatdan najoting.

⁴ O'sha manba. – B. 66.

⁵ O'sha manba. – B. 51.

⁶ O'sha manba. – B. 51.

Safohat aylagay molingni toroj,
Bo'lursan oxiri nomarda muhtoj⁷.

Safohat nodonlik bo'lib, insonni mahv etadi, u nafs oldida yengiladi. Undan najot kutib bo'lmaydi. Safohatli odamning moli, boyligi toroj bo'ladi – talanadi. Natijada bunday inson nomard kishilarga muhtoj bo'ladi. Shoirning xulosaviy fikrlari ham hayotiy: nafsga safohat jomini – suvini ichirma deydi. Ya'ni Avloniy safohat nafsga yo'l ochib beradi, demoqchi bo'ladi. Natijada inson faqirlikka – qashshoqlikka yuz tutadi.

Demak, shoir nafsga berilish oqibatida inson botinida, tiynatida namoyon bo'ladigan yomon xulqlar shu asosda dalillab beradi. Abdulla Avloniy pedagog bo'lganligi sababli ham nafs mavzusining tarbiyaviy vazifalariga alohida e'tibor qaratgan. Qolaversa, Avloniyning nafsga oid qarashlari o'zbek mumtoz, ayniqsa, didaktik adabiyotiga izdoshlik qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.Yassaviy. Devoni hikmat.– Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Nashriyot-matbaa birlashmasi, 1992, 12-hikmat.
- 2.Yassaviy. Devoni hikmat.– Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Nashriyot-matbaa birlashmasi, 1992. –B. 22.
- 3.Zahiriddin Muhammad Bobur. G'azallar, ruboiylar, tuyuqlar, masnaviylar, fardlar. –B.99. www.ziyouz.com kutubxonasi

⁷ O'sha manba. – B. 51.